

O‘ZBEKISTON QISHLOQ JAMOALARI TOMONIDAN QO‘LLAB- QUVVATLANAYOTGAN INFRATUZILMAGA INVESTITSIYALAR AYOLLAR VA BOLALARGA FOYDA KELTIRMOQDA



O‘zbekistonning Namangan viloyati Tinchlik qishlog‘idagi maktab rekonstruksiya ishlari yakunlanganini o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va mahalliy faollar nishonlamoqda.

ASOSIY MA‘LUMOTLAR

- Qishloq jamoalarini rivojlantirishga investitsiyalar jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirish, qishloq aholisining turmush darajasini oshirish va O‘zbekiston qishloqlarida davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash uchun zarur.
- Hukumat tomonidan Jahon banki va Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (OIIB) ko‘magida amalga oshirilayotgan noyob loyiha mamlakatning beshta hududidagi qishloq jamoalariga loyiha mablag‘larini mahalliy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qaysi sub-loyihalarga investitsiya qilish to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi.
- Qishloq jamoalari ishtirokida amalga oshirilayotgan ushbu infratuzilma sub-loyihalaridan bugungi kunga qadar, aksariyati ayollar va bolalar bo‘lgan, 426 ming kishi foyda ko‘rmoqda. Bular maktab va bolalar bog‘chalari, suv va energetika tizimlari, shuningdek, yo‘llar va ko‘priklar kabi jamoat obyektlarini rekonstruksiya qilish va qurish ishlarini o‘z ichiga oladi.

37 millionlik O‘zbekiston aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida yashaydi. Qishloq jamoalarida aholining toza ichimlik suvi, sifatli sog‘liqni saqlash va ta‘lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga egaligi ehtimoli kamroq. Bunday tengsizlik butun mamlakat bo‘ylab millionlab odamlarning farovonligiga tahdid soladi, va bundan ayollar hamda bolalar ko‘proq jabr ko‘rishadi.

Masalan, [2023-yilda O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozori tarkibidagi ishtiroki darajasi erkaklar ishtiroki darajasidan pastroqligi 30 foizdan oshiq bo‘lgan](#). Suv, elektr energiyasi, maktabgacha ta‘lim kabi davlat xizmatlari ta‘minotining yo‘qligi ayollarga, ayniqsa, chekka va qishloq joylarda yashovchi ayollarga, yukni oshirib, ularning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini cheklamoqda. [2022-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi ishsiz ayollarning 75 foizi uy ishlarini yuritish bo‘yicha majburiyatlarini rasmiy ishda band bo‘lmaganining sababi sifatida ko‘rsatgan](#).

Bundan tashqari, 2017-yildan buyon erta yoshdagi bolalarni parvarish qilish va ta‘lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, 2022-yilda [O‘zbekiston qishloq joylaridagi bolalarning atigi 42 foizi, maktabgacha ta‘lim imkoniyatiga ega bo‘lishgan](#), qachonki, shahar rayonlaridagi bolalarning 51 foizi bunday imkoniyatdan foydalana olishgan. Shu bilan birga, ushbu bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olishda hududlar orasida ham sezilarli farqlar ko‘zga tashlanardi.

Shahar va qishloq joylari o‘rtasidagi ushbu farq tengsizlikni kuchaytiradi va O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun mamlakatda qishloq rayonlarini rivojlantirishning moslashuvchan va mahalliy aholining keng ishtirokiga asoslangan modeli joriy etilmoqda. Bu barcha fuqarolar uchun yanada inklyuziv va barqaror kelajak qurishda yordam beradi.

Qishloq joylarida o‘zgarishlar uchun ko‘proq imkoniyatlar.

Andijon, Farg‘ona, Namangan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining tog‘li hududlaridagi 306 ta chekka qishloqlarida aholi O‘zbekiston uchun noyob bo‘lgan qishloqlarni rivojlantirish dasturida faol ishtirok etmoqda. Jahon banki va Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (OIIB) tomonidan moliyalashtirilayotgan [“Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi](#) (RIDP) ko‘magida mahalliy hamjamiyat o‘z qishloqlarida qaysi asosiy infratuzilma obyektlarini birinchi navbatda rekonstruksiya qilish yoki noldan boshlab qurish zarurligini birgalikda hal qiladi. Ushbu obyektlarga ta‘lim va tibbiyot muassasalari, elektr va suv ta‘minoti tizimlari, ko‘priklar va ichki yo‘llar kiradi.

Qarorlarni qabul qilish jarayoni mahallalar taraqqiyoti guruhleri (MTG) sa‘y-harakatlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu guruhlar mahalliy faollardan tashkil topgan bo‘lib, RIDP loyihasi bilan qamrab olingan qishloqlar barcha aholisining vakillik organi hisoblanadi. Ushbu guruhlar a‘zolarining kamida 50 foizini ayollar tashkil etadi. MTG aholi punktlari uchun tegishli infratuzilma obyektlarining ustuvorligini aniqlashda mahalliy aholining istaklarini inobatga oladi. Ular mazkur obyektlar bo‘yicha jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish va ovoz yig‘ish, aholi tomonidan ma‘qullangan infratuzilma obyektlarini qurish yoki rekonstruksiya qilishni

rejalashtirish hamda pudratchi tashkilotlar tomonidan bajarilayotgan ishlarni nazorat qilish uchun javobgardir.



O'zbekistonning Andijon viloyati Uzumzor qishlog'idagi MTG faollari mahalliy ko'chalar qiyofasini o'zgartirgan ichki yo'llarni asfritlash ishlari natijalarini muhokama qilmoqda.

Bunday yondashuv afzal natijalarga olib keladi, chunki cheklangan davlat moliyaviy resurslari eng ko'p talab qilinadigan infratuzilma obyektlariga, shu jumladan, an'anaviy zaif guruhlar - ayollar va bolalar muhtoj bo'lgan obyektlarga sarflanadi. Qishloq aholisi o'z aholi punktlarini rivojlantirishda ishtirok etish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishadi va mahalliy infratuzilma uchun katta mas'uliyatni his qilishadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bu tegishli infratuzilma obyektlaridan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi.

Qishloq hamjamiyati aholi punktlari qiyofasini o'zgartirishga hissa qo'shayotgan o'zlarining MTG faoliyatini yuqori darajada baholamoqdalar. RIDP loyihasi doirasida qamrab olingan qishloqlarda har olti oyda bir marta o'tkaziladigan, yaqinda bo'lib o'tgan navbatdagi ijtimoiy auditda 185 ta qishloq jamoalaridan 32 mingdan ortiq ayollar (barcha audit ishtirokchilarining 47 foizi) ishtirok etdilar. Ular deyarli bir ovozdan (99 foiz) ushbu qishloqlar uchun MTG tomonidan ustuvor sifatida belgilangan infratuzilma sub-loyihalari ularning ehtiyojlariga to'liq javob berishini ta'kidladilar.

Tinchlik qishlog'idagi 650 nafar maktab o'quvchilari uchun ta'lim infratuzilmasiga investitsiyalar.

Mahalliy qishloq jamoalari tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilma investitsiyalari qishloq aholisi hayotining turli sohalarini, jumladan ta'limni, yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, RIDP loyihasi doirasida tegishli qishloqlar aholisi loyiha mablag'larini 79 ta qishloq maktabi va maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va rekonstruksiya qilishga yo'naltirish bo'yicha qaror qabul qildilar. Bu mahalliy bolalarning, ayniqsa, qizlarning ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi.

Masalan, Namangan viloyati Chust tumani Tinchlik qishlog‘idagi 560 ga yaqin uy xo‘jaliklari loyiha mablag‘larini mahalliy 12-sonli umumta‘lim maktabini rekonstruksiya qilishga yo‘naltirish uchun ovoz berishdi. Ushbu maktabdagi oxirgi kapital ta‘mirlash ishlari 1967-yilda olib borilgan.

O‘ninch sinf o‘quvchisi **Zarina** ushbu maktabning rekonstruksiyadan oldingi sharoitini quyidagicha eslaydi: *“Avvallari sinfdoshlarim va ustozlarimiz bilan kuz-qish mavsumida katta qiyinchiliklarni boshdan kechirardik. Biz issiq kiyimlarimizni kiygan holda isitilmaydigan va zax sinflarda dars o‘tishga majbur bo‘lardik. Elektr ham muntazam ravishda uzilib turardi. Bu bizning sog‘lig‘imizga, bilim olishimizga va maktabga borish istagimizga salbiy ta‘sir ko‘rsatardi.*



Tinchlik qishlog‘idagi 12-sonli umumta‘lim maktabida modernizatsiya qilingan isitish tizimi sinf xonalarida qulay harorat va shinamlik yaratib, ta‘lim muhitini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

2023-yil avgust oyida rekonstruksiya ishlari yakunlandi. Maktabda yangi isitish, elektr ta‘minoti va ventilatsiya tizimlari o‘rnatildi. Ushbu o‘zgarishlar xonalarni bolalarning ta‘lim olishi uchun xavfsizroq va qulayroq qildi. Endilikda 22 ta sinf xonasi quyosh panellari yordamida yil davomida barqaror elektr energiyasi bilan ta‘minlamoqda. Yangi isitish qozoni ilgari maktab hududi va uning atrofidagi havoni ifloslantirgan ko‘mir tutunini yo‘q qilishga imkon berdi.

“Maktab yaqinida o‘rnatilgan drenaj tizimi avvallari o‘quvchilar salomatligi bilan bog‘liq muammolarga sabab bo‘lgan zaxlikni kamaytirishga yordam berdi. Issiq va sovuq suv ta‘minoti, hojatxonalar va ovqatlanish xonasi endi sanitariya-gigiyena talablariga javob beradi. Farzandlarimiz har kuni yangi asfalt yo‘li bo‘ylab maktabga boradi”, — deydi mahalliy MTG faoli Gulchehra Nurmatova. “Bu o‘zgarishlarning barchasi qishloq aholisining maktabni rekonstruksiya qilishga loyiha mablag‘larini investitsiya qilish haqidagi qarori to‘g‘ri bo‘lganini tasdiqlaydi”.



Tinchlik qishlogʻidagi 12-sonli maktabning keng, yorugʻ sinf xonalari yangi mebel, proyektor va boshqa zarur oʻquv qurollari bilan jihozlangan.

Binoning modernizatsiya qilinishi natijasida maktabdagi oʻquv oʻrinlari soni 519 tadan 650 taga koʻpaydi. Ilgari farzandlarini shaharga oʻqishga yuborishni oʻylagan ota-onalar endilikda mazkur taʼlim muassasasining mahalliy maktab oʻquvchilarini yaxshiroq taʼlim bilan taʼminlash qobiliyatiga katta ishonchni namoyish qilmoqdalar.

Yangi infratuzilma obyektlari yuz minglab qishloq aholisining yashash sharoitini yaxshilamoqda.

Tinchlik qishlogʻidagi rekonstruksiya qilingan maktab — RIDP loyihasi Oʻzbekiston qishloqlari hayotini qanday oʻzgartirayotganiga oid yuzlab misollardan biri, xolos.

Ayni vaqtda mazkur loyihada ishtirok etayotgan qishloqlar loyiha mablagʻlarini 430 ta infratuzilma obyektini rekonstruksiya qilish va qurish uchun investitsiya kiritishga muvaffaq boʻldilar. 5 ta tibbiyot muassasasi, 7 ta koʻprik, 25 ta bolalar bogʻchasi, 54 ta oʻrta maktab, 75 ta elektr taʼminoti tizimi, 127 ta suv taʼminoti tizimi, 136 ta ichki yoʻllar shular jumlasidandir. shular jumlasidandir. Ushbu inshootlar qishloq aholisining asosiy davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshiladi va tegishli aholi punktlarida turmush darajasini oshirdi.

Qishloq infratuzilmasining rivojlanishi 426 mingdan ortiq aholi hayotiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi, ularning yarmidan koʻpi – ayollar. RIDP loyihasi tugallangach, 2025-yilga kelib benefisiarlar soni ikki baravar oshishi kutilmoqda.

Oʻzbekiston hukumati, Jahon banki va OIIBning hamkorlikdagi saʼy-harakatlari asosiy infratuzilmaga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishga yordam berish, hududlararo tafovutni qisqartirish va mamlakat fuqarolari farovonligini oshirish uchun teng sharoitlar yaratish orqali qishloq jamoalarining imkoniyatlarini kengaytirmoqda.



O‘quvchi qizlar tinchlik qishlog‘idagi 12-sonli o‘rta maktabning yangi kompyuter sinfida vazifa bajarmoqdalar. Maktab ta‘mirlangandan so‘ng, ayniqsa, qizlar orasida davomat ko‘tarildi.

MAVZUGA OID MATERIALLAR

[“Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi \(RIDP\)](#)

[MATBUOT XABARI: O‘zbekiston mahalliy jamoalar ishtirokida qishloqlardagi ijtimoiy infratuzilma va xizmatlar sifatini yaxshilaydi](#)

[Video: Anna Byerde O‘zbekistonga tashrifi davomida Saroy qishlog‘idagi yangi maktabga tashrif buyurdi](#)

[O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish guruhi](#)

[Jahon banki O‘zbekistonda](#)